

# “UMUMIY O’RTA TA’LIM TIZIMINING BOSHQARUV JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI”

Oriental universiteti

70411201 – menejment (ta’lim menejmenti)

Meliboyev olimjon alibayevich

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimi global o’zgarishlar va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida tezkor innovatsiyalarga ehtiyoj sezmoqda. Umumiy o’rta ta’lim jarayonining samarali tashkil etilishi bevosita ta’lim sifatiga, o’quvchilarning bilimi va ko’nikmalariga hamda pedagoglarning kasbiy faoliyatiga ta’sir ko’rsatadi. Shunday ekan, ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv usullarini qo’llash orqali ta’lim jarayonini optimallashtirish, ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish va ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari dolzarbliги haqida so’z yuritiladi.

*Kalit so’zlar:* Ta’lim tizimi, jamiyat, pedagok, pedagogik yondashuv, o’qituvchi, o’qituvchi, boshqaruv, muammo, inson omili.

O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida, zamonaviy ta’lim boshqaruvi jarayonlari chuqur o’rganilmoqda. O’zbekiston Respublikasida ta’lim boshqaruvi sohasida olib borilgan tadqiqotlar o’quv jarayonini samarali boshqarish va ta’lim sifatini oshirishga yo’naltirilgan. Tadqiqotlar turli darajalarda ta’lim tizimini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishni maqsad qilgan.

Ta’lim tizimi jamiyatning eng muhim institutlaridan biri bo’lib, uning samarali faoliyati ijtimoiy taraqqiyot va inson kapitalining shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. **Ta’limni boshqarish tushunchasi, ta’lim**

jarayonlarini tashkil etish, rahbarlik qilish, resurslarni boshqarish, o‘quv natijalarini baholash va ta’limni takomillashtirish bilan bog‘liq amallarni o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha ta’lim tizimini rivojlantirish, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni yuksak natijalarga yo‘naltirish, samarali o‘rgatish va o‘rganishni ta’minlashda muhimdir.

Ta’limda boshqaruv tushunchasi ta’limning rivojlanishini, o‘quvchilarning yuqori natijalarga erishishini va ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda kritik ahamiyatga ega. U ta’lim tizimini samarali boshqarish, rahbarlik qilish va takomillashtirishda keng foydalilaniladi.

Ta’limda boshqaruvni rivojlantirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ijtimoiy adolat, o‘z-o‘zinim rivojlantirish, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar ta’minlash, oliy ta’limning yuksak darajaga ko‘tarilishi, huquqiy salohiyatli kadrlar tayyorlash, tashkilotlarda rahbarlik vazifasini bajarish, huquqiy normalar, qonunlar, xalqaro standartlar va konvensiyalar bilan bog‘liq ko‘plab imkoniyatlarni amalga oshirishi mungkin. Ta’limni boshqarish qonuniyatları boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarining ob’ektiv ravishda mavjud bo‘lgan, takrorlanuvchi o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiy

va xususiyga bo‘linadi. Umumiy qonuniyatlar boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo‘lsa, xususiyatlari ayrim ta’lim tashkilotlari va muassasalarining amal qilishi bilan bog‘liq.

Ta’lim sohasida boshqaruv faoliyati hozirgi kunda insonlar uchun yangi imkoniyatlar va innovatsiyalarning ochilishi, xalqaro hamjamiyatlar bilan aloqalar o‘rnatish va yuksak darajadagi kadrlar tayyorlash kabi ko‘plab yutuqlar ko‘rsatishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, har bir davlat o‘zining fuqarolariga o‘zaro erkin qarashlarga imkon beradigan, huquqiy va innovatsion boshqaruv faoliyati o‘rnatish uchun kelajakda barcha insonlar uchun yaxshi ta’lim beradigan muassasalar bilan ta’minlashi zarurdir. bugungi zamon talablariga ko‘ra ta’lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar bilan yechish mumkin:

- + boshqaruvning tarkibiy qisimlari, maqsad va vazifalarini tog'ri tanlash;
- + ugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o'rghanib chiqish va tahlil qilish;
- + kelgusida qilinadigan ishlarni rejallashtirish;
- + ta'lism va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish;
- + jamiyatimizda tubdan isloh qilingan ta'lism tizimini yaratish.

Avvalo boshqaruv ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning ko'zlagan maqsadi belgilaydi. Maqsad esa huddi qonundek ong ostiga ta'sir qilib, harakatning sifatini va usulini belgilaydi. Demak ko'rinish turibdiki boshqarish ham inson faoliyatining o'ziga xos sohasidir. Yuqoridagi fikirlarning mohiyati shundaki, boshqarishda maqsadni to'g'ri, aniq belgilash uning natijasining samarador va yuqori bo'lishiga turtki bo'ladi.

Boshqarishning uzlusizligiga ham jiddiy e'tibor berish kerak. Ta'lism tizimi

uzluksiz bajaradigan vazifasi jihatidan bir-biriga bog'liq umumiyl maqsad-komil

insonni shakllantirishni amalga oshiradi. Bunda har bir bo'g'in o'z vazifasiga ega.

Demak boshqarishning maqsadi, funksiyasi va tuzilishi uning shakli va mazmunini belgilab berar ekan. Mazmun esa shaklni belgilaydi. O'z navbatida shakl ham mazmunga ta'sir ko'rsatadi. Boshqarish funksiyasi faoliyatda amalga oshadi.

Tizimning mavjudligi uni boshqarish jarayonini amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Boshqaruvchi kishining faoliyati aniq va maqsadga qaratilgan ma'lum talablardan iboratdir.

Inson omiliga yo‘naltirilganlik – ta’lim boshqaruvi asosan inson kapitaliga asoslanadi va o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan. Ta’lim boshqaruvini inson omiliga yo‘naltirilganlik deganda, boshqaruv jarayonida insoniy omillarga, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilarining ehtiyojlari, qiziqishlari va huquqlariga alohida e’tibor berish tushuniladi. Bu yondashuvda shaxsga hurmat, ishonch, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati, o‘quvchi va o‘qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning iste’dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish kabi tamoyillar asosiy o‘rin tutadi. Boshqaruvni demaratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish prinsipi.

Pedagogik tizimni boshqarishni demokratlashtirish kadrlarni tanlov, shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama etish, axborotlarning barcha uchun ochiq, tushunarli bo‘lishiga erishish, ta’lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma’muriyatning muntazam hisobot berishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarga ta’lim muassasasi hayotiga oid o‘z fikrlarini bildirishlariga imkon berish, ta’lim muassasasida demokratik g‘oyalarning ustuvor o‘rin tutishini anglatadi.

Ta’limning uzluksizligi va izchilligi barcha ta’lim dasturlari va turli darajadagi ta’lim standartlarini ketma-ket o‘zlashtirish orqali ta’minlanadi. Bunda ta’lim dasturi muayyan tartibda tuzilgan bilimlar majmuasini tashkil etib, ularni egallahash ta’lim oluvchilarga o‘qishni davom ettirish yoki muayyan lavozimni egallahashga imkon beruvchi malakani olishga imkon beradi.

Uzluksizlik tamoyili ta’lim jarayonining yaxlitligi va undagi barcha bosqich va darajalarda integrasiyalashuvni ta’minlashga qaratilgan. Bu tamoyil ta’lim mazmunining tizimliligi, izchilligi va mantiqan bog‘liqligini ta’minlashni talab qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarining o‘zlashtirgan bilimlari keyingi bosqichlarda ko‘nikma va malakalarga o‘tishiga asos yaratadi.

Uzluksizlik tamoyili ta’lim jarayonining yaxlitligi va undagi barcha bosqich va darajalarda integrasiyalashuvni ta’minlashga qaratilgan. Bu tamoyil ta’lim mazmunining tizimliligi, izchilligi va mantiqan bog‘liqligini ta’minlashni talab qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga asos yaratadi.

Uzluksizlik tamoyili ta'lism jarayonining yaxlitligi va undagi barcha bosqich va darajalarda integrasiyalashuvni ta'minlashga qaratilgan. Bu tamoyil ta'lism mazmunining tizimliligi, izchilligi va mantiqan bog'liqligini ta'minlashni talab qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga asos yaratadi.

Innovatsion yondashuv – zamonaviy ta'lism tizimida raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lism, sun'iy intellekt asosida boshqaruv tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Ta'lism boshqaruvida innovatsion yondashuv deganda, ta'lism jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida yangi usullar, texnologiyalar va boshqaruv strategiyalarini joriy etish tushuniladi. Bu yondashuv ta'lism muassasalarida zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va ta'lism sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Demokratik boshqaruv tamoyili. Demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lism boshqaruvi pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida ochiq muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tamoyil o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatishga yordam beradi. Demokratik boshqaruv tamoyili ta'lism tizimida barcha ishtirokchilarning – o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlashga asoslanadi. Bu tamoyil ta'lism jarayonini shaffof, inklyuziv va ochiq muloqotga asoslangan holda boshqarishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalar va yangi pedagogik metodlarni qo'llash o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Masalan, Finlyandiya va Singapur ta'lism tizimlari bu tamoyil asosida tashkil etilgan bo'lib, ular dunyo miqyosida eng ilg'or ta'lism tizimlaridan biri sifatida tan olingan. Zamonaviy ta'lism tizimi doimiy rivojlanish va o'zgarish jarayonida bo'lib, innovatsion yondashuvlar ushbu sohaning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Mirmahmudova **TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA BOSHQARUV QARORLARI RESEARCH FOCUS / VOLUME 2 / ISSUE 3.2023**  
**ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) / Google Scholar / SJIF (5.708) / UIF (8.3**
2. Ne'matova Mavsumma **TA'LIMNI BOSHQARISH: TUSHUNCHA, XUSUSIYATI. TA`LIMDA BOSHQARUV**
3. UNESCO. (2020). *Education Management and Governance.*
4. Xalqaro Ta'limdi Baholash Dasturi (PISA) natijalari. (2021).
5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy jurnali. (2022).
6. Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqot natijalari. (2023).
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hisoboti. (2023).
8. Innovatsion ta'lim menejmenti bo'yicha xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. (2022).